

**THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO STIMULATE STUDENTS'
INTEREST IN SCIENCE IN PRIMARY EDUCATION**

Jamol Bakhodirovich Mamadiyorov

Acting Associate Professor (PhD)

Department of Continuous Education Pedagogy

Oriental University

Gulinavro‘za Umidjon qizi Rahmonova

Master’s Student,

Oriental University

Abstract: This article examines the methodology of shaping students’ moral and social development in primary education based on modern pedagogical technologies. The pedagogical potential of student-centered, competency-based, and activity-oriented approaches in organizing the educational and upbringing process is analyzed. The role of collaborative learning, project-based methods, problem-based instruction, role-playing activities, and digital technologies in fostering social responsibility, communication culture, and independent thinking among primary school students is highlighted. The effectiveness of integrating educational objectives into classroom instruction is substantiated. The findings emphasize the importance of a systematic approach to organizing the upbringing process in the context of modern educational transformation.

Keywords: primary education, upbringing, modern pedagogical technologies, competency-based approach, student-centered learning, project-based learning, collaborative learning, digital education, social competencies.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNI ILMGA QIZIQTIRISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Mamadiyorov Jamol Baxodirovich

Oriental universiteti “Uzluksiz ta’lim
pedagogikasi” kafedrası v/b dotsenti, (PhD)

Rahmonova Gulinavro‘za Umidjon qizi

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilar tarbiyasini shakllantirish metodikasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tarbiyaviy jarayonni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada hamkorlikda o‘qitish, loyiha metodi, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar hamda raqamli texnologiyalarning tarbiyaviy jarayondagi o‘rni ochib beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy mas’uliyat, kommunikativ madaniyat, mustaqil fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari tarbiyaviy jarayonni dars mazmuni bilan integratsiyalash va uni tizimli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish, raqamli ta’lim, ijtimoiy kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика формирования воспитательных качеств учащихся начального образования на основе современных педагогических технологий. Раскрываются педагогические возможности личностно-ориентированного, компетентностного и деятельностного подходов в организации воспитательного процесса. Анализируется роль сотрудничества, проектного метода, проблемного обучения, ролевых игр и цифровых технологий в формировании социальных и нравственных качеств младших школьников. Обосновывается эффективность

интеграции воспитательных целей в содержание учебных занятий. Результаты исследования подчеркивают необходимость системного подхода к организации воспитательного процесса в условиях модернизации образования.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, современные педагогические технологии, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, проектный метод, сотрудничество, цифровое обучение, социальные компетенции.

KIRISH:

XXI asrda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida tub islohotlarni boshdan kechirmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji hamda ijtimoiy-ma'naviy yangilanish jarayonlari boshlang'ich ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori bo'lib, aynan shu davrda bolalarda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor, muloqot madaniyati va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

An'anaviy tarbiyaviy yondashuvlar ko'proq nasihat va tushuntirishga asoslangan bo'lib, o'quvchining faol ishtirokini to'liq ta'minlay olmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa tarbiya jarayonini interfaol, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, hamkorlikda o'qitish, reflektiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy qarashlari shakllanadi.

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilar tarbiyasini shakllantirishning nazariy asoslari hamda uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, tarbiyaviy jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning metodik mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar tarbiyasini shakllantirish masalasi pedagogika fanida doimiy dolzarblik kasb etib kelgan yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda esa tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalasi ilmiy adabiyotlarda alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'proq uchramoqda. Chunki tarbiya endilikda faqatgina "nasihat" yoki "qoidani tushuntirish" bilan cheklanmay, o'quvchining shaxsiy tajribasi, faol ishtiroki, hamkorligi va refleksiyasi orqali shakllanadigan murakkab pedagogik jarayon sifatida talqin qilinmoqda.

Ilmiy manbalar tahlili: Pedagogik adabiyotlarda tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga asoslangan metodlarning o'rni keng yoritilgan. Xususan, konstruktivistik yondashuv doirasida ta'lim va tarbiya shaxs tomonidan faol ravishda "quriladigan" jarayon sifatida izohlanadi. Bunda o'quvchi tayyor qarashlarni qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy tajriba, muloqot va hamkorlik orqali o'z axloqiy pozitsiyasini shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv tarbiyaviy ishlarni ham interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va jamoaviy faoliyat orqali samarali tashkil etish mumkinligini ko'rsatadi.

Tarbiya jarayonining ijtimoiy mohiyatini tushuntirishda sotsial-madaniy yondashuv ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, bolada xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalar kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir, hamkorlik hamda muloqot jarayonida shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy

faoliyatni samarali tashkil etishda o'qituvchi–o'quvchi hamda o'quvchi–o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot muhitini yaratish ustuvor ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar (hamkorlikda o'qitish, loyiha metodi, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar, refleksiya va baholashning innovatsion shakllari) tarbiyaviy maqsadlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Pedagogik manbalarda bunday texnologiyalar o'quvchilarda mas'uliyat, jamoada ishlash, o'zini boshqarish, ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatini shakllantirishda yuqori natija berishi ta'kidlanadi.

Oldingi ilmiy ishlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya ko'proq axloqiy-etik mazmunda, sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar va ma'naviyat soatlari orqali tashkil etilishi bilan izohlangan. Biroq keyingi davrdagi ilmiy adabiyotlarda tarbiyani o'quv jarayoni bilan uzviy integratsiyalash, darsning o'zida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari kuchayib bormoqda. Ayniqsa, "faol o'qitish" konsepsiyasi doirasida o'quvchilarning tarbiyaviy sifatleri ham bevosita faoliyat orqali shakllantirilishi ilmiy jihatdan asoslanmoqda.

Raqamli ta'lim muhitining kengayishi bilan tarbiyaviy jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Onlayn hamkorlik platformalari, multimedia resurslar, raqamli didaktik materiallar, gamifikatsiya elementlari o'quvchilarda nafaqat bilish faolligini oshirishi, balki ijtimoiy xulq, mas'uliyat va raqamli madaniyatni ham shakllantirishi mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, raqamli muhit tarbiyada risk omillarini ham yuzaga keltirishi (axborot xavfsizligi, noto'g'ri kontent, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik) ham ilmiy manbalarda muhokama qilinadi. Bu esa tarbiya jarayonida texnologiyadan maqsadli va nazoratli foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Nazariy asoslar: Mavzu bo'yicha adabiyotlarda quyidagi nazariy yondashuvlar metodik tayanch sifatida ko'proq uchraydi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – o‘quvchining individual ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini tarbiyaviy jarayonda hisobga olish;
2. Kompetensiyaviy yondashuv – tarbiyani qadriyat, xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalar ko‘rinishida aniq kompetensiyalar sifatida shakllantirish;
3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – tarbiyaviy sifatlar bevosita amaliy faoliyat, hamkorlik va muammoli vaziyatlar orqali rivojlanishi;
4. Refleksiv yondashuv – o‘quvchida o‘z xulqi, qarori va munosabatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mazkur nazariy yondashuvlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta‘limda tarbiya masalasi ko‘plab manbalarda yoritilgan bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aynan tarbiyaviy maqsadlarda qo‘llashning yagona, tizimli va bosqichma-bosqich metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko‘plab manbalarda metodlar alohida-alohida sanab o‘tiladi, biroq ularni dars mazmuni, yosh psixologiyasi, tarbiyaviy natijalar va baholash mezonlari bilan integratsiyalash mexanizmlari kam yoritiladi.

Shuningdek, raqamli vositalardan tarbiyaviy jarayonda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ko‘p uchrasa-da, ularni amaliyotda qo‘llashning pedagogik shartlari, risklarni boshqarish va tarbiyaviy samaradorlikni baholash mezonlari bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar yetarli emas.

Demak, boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilar tarbiyasini shakllantirish metodikasini ilmiy jihatdan tizimlashtirish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi bosqichning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

METODOLOGIYA:

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilar tarbiyasini shakllantirish masalasini yoritishga qaratilgan. Ish jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar, pedagogik nazariyalar hamda amaliy tajribalar o'rganildi va umumlashtirildi.

Maqolani tayyorlashda bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning tarbiyaviy samaradorligi taqqoslandi. Nazariy umumlashtirish va sintez orqali turli manbalardagi fikrlar yagona tizimga keltirildi. Pedagogik kuzatuv elementlari boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlashda qo'llanildi. Shuningdek, konseptual modellashtirish usuli asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va tizimli yondashuvlar asos qilib olindi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, tarbiyaviy natijalarni aniq kompetensiyalar ko'rinishida belgilash hamda tarbiya jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Maqola ustida ishlash jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: avvalo mavzuga oid ilmiy manbalar o'rganildi va asosiy tushunchalar aniqlashtirildi; keyin zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi; yakunda esa olingan xulosalar asosida boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarbiyaviy maqsadlarda qo'llashning ilmiy asoslarini ochib berish hamda ularni amaliy jihatdan tizimlashtirish imkonini berdi.

NATIJARAR:

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, avvalo, tarbiyani ta'lim jarayonidan ajratib qo'ymasdan, uni dars mazmuni bilan integratsiyalashni nazarda tutadi. Tarbiya — bu shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, qadriyatlar tizimini shakllantirishi hamda ongli xulq-atvor me'yorlarini egallash jarayonidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa mazkur jarayonni faol, ongli va refleksiv shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tarbiyaviy jarayon o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa tarbiyaviy natijalarni aniq ko'nikma va kompetensiyalar ko'rinishida belgilashni talab qiladi. Masalan, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ madaniyat, mas'uliyat, hamkorlik ko'nikmasi va fuqarolik pozitsiyasi boshlang'ich bosqichdayoq shakllantirilishi zarur.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tarbiyaviy sifatlarning bevosita amaliy faoliyat jarayonida rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi o'z tajribasi orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhda ishlash, qaror qabul qilish va o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi. Shu orqali tarbiya jarayoni real hayot bilan bog'lanadi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish bir necha muhim mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Avvalo, integrativ dars modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir fan darsida tarbiyaviy maqsadlar aniq belgilanishi va o'quv mazmuniga uyg'unlashtirilishi zarur. Masalan, ona tili darsida matn mazmuni orqali axloqiy qadriyatlar muhokama qilinishi, matematika darsida esa aniqlik, halollik va mas'uliyat kabi fazilatlar mustahkamlanishi mumkin. Shu tariqa ta'lim va tarbiya jarayoni uzviy bog'liq holda olib boriladi.

Hamkorlikda o'qitish mexanizmi ham tarbiyaviy jarayonni faollashtiradi. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarda jamoaviylik, o'zaro hurmat va mas'uliyat hissini

shakllantiradi. Guruhli topshiriqlarni bajarish jarayonida ular o‘z fikrlarini asoslash, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va murosaga kelish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Loyiha asosidagi faoliyat esa o‘quvchilarning tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. “Tabiatni asraymiz”, “Do‘stlik haftaligi” kabi kichik loyihalar orqali bolalarda fuqarolik mas’uliyati, atrof-muhitga hurmat va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dars yakunida o‘quvchilarning o‘z xulq-atvori, faoliyati va erishgan natijalari haqida fikr yuritishi ularda ongli munosabat va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli vositalarni integratsiyalash ham zamonaviy tarbiyaviy jarayonning ajralmas elementi sanaladi. Multimedia materiallar, interfaol topshiriqlar va onlayn hamkorlik platformalari o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularda raqamli madaniyat va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu orqali tarbiya jarayoni zamon talablariga mos ravishda tashkil etiladi.

1-jadval

Pedagogik texnologiya	Tarbiyaviy yo‘nalish	Kutilayotgan natija
Hamkorlikda o‘qitish	Jamoaviylik, hurmat	Ijtimoiy kompetensiya
Loyiha metodi	Mas’uliyat, tashabbuskorlik	Fuqarolik pozitsiyasi
Muammoli ta’lim	Mustaqil fikrlash	Tanqidiy tafakkur
Rolli o‘yinlar	Empatiya, muloqot	Kommunikativ madaniyat
Raqamli texnologiyalar	Axborot madaniyati	Raqamli savodxonlik

Zamonaviy texnologiyalar va tarbiyaviy natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvdan farqli ravishda, bu model o‘quvchini passiv qabul

qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon etadi. Natijada tarbiyaviy ta'sir barqaror va ongli xarakter kasb etadi.

Shuningdek, tarbiyaviy jarayonni texnologik asosda rejalashtirish va amalga oshirish uning tizimlilikini ta'minlaydi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat bilim egallaydi, balki ijtimoiy xulq-atvor, axloqiy qarashlar va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogning metodik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar texnologiya maqsadga muvofiq va tizimli qo'llansa, u tarbiyaviy jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA:

Birinchiidan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar tarbiyasini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan integratsiyalash o'quvchilarning ijtimoiy, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, hamkorlikda o'qitish, loyiha metodi, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar hamda refleksiv metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat, o'zaro hurmat, mustaqil fikrlash va jamoaviylik sifatlarini shakllantirishda yuqori pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi asoslandi.

Uchinchiidan, tarbiyaviy jarayonni dars mazmuni bilan integratsiyalash, uni alohida tadbir sifatida emas, balki uzluksiz pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Mazkur maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda amaliy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq integratsiyalash orqali dars jarayonida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish,

o‘quvchilar faolligini oshirish va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, taklif etilgan model pedagogik amaliyotda tarbiya jarayonini tizimli rejalashtirish, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kelgusida boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarbiyaviy jarayonning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali aniqlash, turli fanlar kesimida metodik modellarni ishlab chiqish hamda raqamli va sun‘iy intellekt elementlarini tarbiyaviy faoliyatga integratsiyalash masalalarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – 182 p.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
4. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956. – 207 p.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
6. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and Competition: Theory and Research. – Edina, MN: Interaction Book Company, 1989. – 298 p.

7. Mamadiyurov J. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi // Pedagogika va ta'lim muammolari. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45–52.

8. Mamadiyurov J. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar orqali o'quvchilar tarbiyasini rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2025. – №2. – B. 28–36.

9. Mamadiyurov J. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirish masalalari // Uzluksiz ta'lim jarayoni. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 61–69.